

DESTRUKTIV XULQ-ATVOR NAZARIYALARI

*Sulaymonova To'xtaxon
Abduhalilova Saidaxon
Andijon davlat universiteti*

Annotatsiya : Destruktiv xulq-atvorga oilada va o'smirning atrof-muhitida yetakchi bo'lgan tarbiyaviy holatiga asos solinadi.

Kalit so'zlar : Deviatsiya, destruktiv xulq-atvor, destruksiya, nostonart xulqatvor, addiktiv, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, alkogolizm.

Аннотация: В основе деструктивного поведения лежит ведущая воспитательная ситуация в семье и окружении подростка.

Ключевые слова: девиантность, деструктивное поведение, деструкция, нестандартное поведение, зависимость, преступность, пьянство, алкоголизм. Theories of destructive behavior.

Abstract: Destructive behavior is based on the leading educational situation in the family and the adolescent's environment.

Key words: Deviance, destructive behavior, destruction, non-standard behavior, addictive, crime, drinking, alcoholism.

Nostonart xulq-atvor: xulq-atvorning sotsial stereotiplaridan tashqariga chiqadigan, ammo jamiyat rivojlanishida ijobiy rol o'ynaydigan.

- destruktiv xulq-atvor tashqi destruktiv (ijtimoiy normalarni buzishga qaratilgan)
- addiktiv (haqiqatdan qochish va istalgan his-tuyg'ularni olish uchun ma'lum moddalarni yoki muayyan faoliyatni ishlatish)
- antisotsial (qonunlar va boshqalarning huquqlari buzilishi)
- ichki destruktiv (shaxsning o'zini o'zi parchalashiga qaratilgan):

O'zjoniga qasd qilish, konformistik, narsistik, aqidaparast, autik) xulq-atvor. Umum qabul qilingan yoki rasmiy ravishda belgilangan sotsial normalarga mos kelmaydi. Deviant xulq va uni namoyon etuvchi shaxs boshqa odamlarning salbiy bahosini oladi (ijtimoiy sanksiyalar). Shaxsning o'ziga yoki boshqalarga real zarar keltiradi, ya'ni destruktiv yoki autodestruktiv tarzda namoyon bo'ladi. Muntazam takrorlanadigan (ko'p marotaba yoki uzoq muddat) tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Tibbiy me'yorlar doirasida ko'rib chiqiladi. Sotsial dezadaptatsiya hodisasi bilan birga kuzatiladi. Individual yoki yoshga doir-jinsiy o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari: Jinoyatchilik - Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi. Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari: Ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud:

1. Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish.
2. Alkogolni ko'p iste'mol qilish — spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mukdorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi.

3. Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari: Giyohvandlik - Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish. E.Dyurkgeymning ta'kidlashicha deviant hulq jamiyatda me'yoriy nazorat susayganda yuzaga keladi. R.Mertonning nazariyasida esa, jamiyatda ma'naviy qadriyatlar inson tomonidan ob'ektiv ravishda qabul qilinmay, qadriyatlar tizimi yemirilishni boshlaganda vujudga keladi. Ijtimoyilashuv jarayonida deviant xulq -atvorga oilada va o'smirning atrofmxitida yetakchi bo'lgan tarbiyaviy holat asos solinadi. Byuler jismoniy pubertat bilan bir katorda psixik pubertatni

xamda uning ichidagi 3 ta fazani ajratdi. Birinchisi - bu psixik pubertatlikning arafasi bo‘lib, 11-12 yoshli o‘smirda quyidagi alohida belgilar paydo bo‘ladi: beboslik, urushqoqlik, bolalar o‘yinlari unga kizik ko‘rinmaydi, o‘zidan kattaroq o‘smirlarning o‘yinlari esa tushunarsiz bo‘ladi. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar shakllanishining yana bir asosiy omili bu o‘smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlari :

Sangvinik temperamentdagi o‘smirlarda his-tuyg‘ular tashqi ko‘rinishda yorqin ifodalangan bo‘ladi. Ularni boshqa ishlarga berilib ketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band qilish kerak.

Flegmatik temperamentdagi o‘smir og‘ir, vazmin, xarakatlari salmoqli bo‘ladi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, bo‘shanglik, faoliyatsizlikning namoyon bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Xolerik temperamentdagi o‘smirlar chaqqon, xarakatchan, qo‘zg‘aluvchan bo‘ladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir bo‘ladi. Bu tipdagi o‘smirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanim tez paydo bo‘ladi, ba’zan kayfiyati keskin o‘zgaradi. Xolerik tipdagi o‘smirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat’iyatli, shoshilmay, o‘ylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-xarakatlarida o‘rtoqlari va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida o‘zini tutishlikni tarbiyalab borish lozim.

Melanxolik temperamentdagi o‘smirlarda psixik jarayonlarning sust o‘tishi qayd qilinadi. Ular kuchli qo‘zg‘ovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar. Shuning uchun bunday o‘smirlarda odamga el bo‘lishlikni o‘stirish, jamoada do‘slik va o‘rtoqlik hislarini tarbiyalash zarur, chunki ular osonlikcha yakkalanib, o‘z kechinmalariga berilib ketishi yoki jamoadan chetga chiqib, salbiy ta’sirlarga tushib qolishi mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mehanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
2. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mehanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mehanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
3. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 22, 2021
4. Tokareva V., Talaba shaxsining axloqiy rivojlanish psixologiyasi, T., 1989;g. S 233-237.
5. Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994.